

## KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ TUSHUNCHASI, PREDMETI VA MANBALARI

*Andijon yuridik texnikum*

*Sud huquqiy faoliyati*

*130-guruh talabasi*

**Raxmatullayev Jahongirmirzo**

*Tel:+998 88 547 72 72*

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada Konstitutsiyaviy huquq tushunchasi, predmeti va manbalari haqida malumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiyaviy huquq, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Asosiy Qonun, prinsip, davlat.

Konstitutsiyaviy huquq milliy huquq tizimidagi ko'plab huquq tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Biroq ta'kidlash joizki, huquq fanida "konstitutsiyaviy huquq" atamasi turli ma'nolarda qo'llaniladi. Bir tomondan, bu huquqning aniq bir tarmog'i, bunda "konstitutsiyaviy huquq"ning ko'plab xil tarmoqlardan bir sifatida qatnashadi. Ikkinchini tomondan, mazkur atama "konstitutsiyaviy huquq"ning yuridik fan tarkibiy qismi sifatidagi mazmunini olib beradi. Uchinchidan esa bu atama ostida ta'lim muassasalarida o'rganiladigan o'quv predmeti tushuniladi. Huquqning tarmog'i sifatida konstitutsiyaviy huquq jamoatchilik munosabatlarini tartibga soladi. Fan sifatida davlat qurilish, shaxs va fuqaroning huquqiy maqomi, davlatning faoliyati, tuzilishi va hokazolarni o'rganadi. O'quv predmeti sifatida esa ma'rifiylik vazifasini bajaradi va sohada to'plangan bilimlarni tarqatadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasi yaratilishida eng rivojlangan, taraqqiy topgan demokratik davlatlarning tarixiy tajribasi va jahon konstitutsiyaviy amaliyoti inobatga olingan. Konstitutsiyamiz, birinchi navbatda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining qator hujjalariiga, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalariga va o'zbek xalqining boy tarixiy tajribasiga asoslangan.

*O'zbekiston Konstitutsiyasining g'oya va normalarida xalqimizning ko'p asrlik tajriba va ma'naviy qadriyatlari, boy tarixiy-huquqiy merosi aks ettirilgani uning hayotiyligining kafolatidir. Shu bilan birga, Asosiy Qonunimiz ko'plab demokratik davlatlarda konstitutsiyaviy qurilish sohasidagi ilg'or tajribaning eng yaxshi jihatlarini, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining umume'tirof etilgan normalari hamda mazkur sohadagi boshqa xalqaro hujjalarga asoslangan inson huquq va manfaatlari, erkinligini ta'minlash va himoya qilish mexanizmini o'zida mujassam etgan. Konstitutsyaning qabul qilinishi ijtimoiy va davlat*

*qurilishining barcha jabhalaridagi munosabatlarni, milliy qonunchiligidan tashkil etdi<sup>1</sup>*

O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqimizning ma'nnaviy, madaniy merosi, milliy tafakkur, muqaddas Islomiy qadriyatlar va ko'p asrlik o'zbek davlatchiligi tajribasi hamda huquqiy an'analariga asoslangan va bu ijobiy yutuqlarni o'zida aks ettiradi. Mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi buyuk davlatning ishonchli huquqiy kafolati hisoblanadi. Konstitutsiya o'zida inson huquqlari, demokratiya, erkinlik, barqarorlik va taraqqiyot tamoyillari majmuini ifodalaydi, jamiyat esa u orqali demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etishni eng oliv maqsad deb unga tomon intiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining «Asosiy prinsiplar» deb nomlangan birinchi bo'limi jamiyat va davlat hayotining asosiy ijtimoiy munosabatlarni konstitutsiyaviy tartibga solishning bosh prinsiplari va g'oyalarini o'zida aks ettiradi. Birinchi bo'lim to'rt bobni o'z ichiga oladi: I bob «Davlat suvereniteti», II bob «Xalq hokimiyyati», III bob «Konstitutsiya va qonunning ustunligi», IV bob «Tashqi siyosat» deb nomlangan.

Asosiy prinsiplarning o'ziga xos jihat shundaki, ular Konstitutsianing boshqa qoidalarini, amaldagi qonunchilik tizimini va barcha normativ-huquqiy hujjatlar uchun birlamchi normativ asos vazifasini bajaradi. Bu Konstitutsianing qolgan boshqa bo'limlari hubu asosiy prinsiplar asosida rivojlanishini anglatadi.

Ikkinchi bob O'zbekistonda xalq hokimiyatichiligi asoslarini mustahkamlaydi. Ushbu bobda xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbai ekanligi (7-modda), O'zbekiston xalqining ta'rifi (8-modda), jamiyat hayotining muhim masalalarini hal etishda xalqning ishtiroki (9-modda), O'zbekiston xalqi nomidan ish olib boradigan davlat organlari va mansabdar shaxslar (10-modda), O'zbekistonda davlat hokimiyatini amalga oshirishda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi (11-modda), ijtimoiy hayotning pluralistik asosda rivojlanishi va hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida urnatilishi mumkin emasligi (12-modda), demokratiyaning umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi, inson huquq va erkinliklarining oliy qadriyatligi (13-modda), Davlat faoliyatining ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplariga asoslanishi (14-modda) mustahkamlangan.

*Konstitusiyamizning 16-moddasiga nazar tashlaydigan bo'lsak “birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas” 21deb belgilab qo'yilgan. Aynan shu norma*

<sup>1</sup> Kalmuratova Aselya - Toshkent Arxitektura Qurilish Universiteti “Geodeziya kartografiya kadastr” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi – BAXTIMIZQOMUSIKONSTITUTSIYAMIZ -<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/13479https://>

*Konstitutsiyaning ustunligini ta'minlovchi eng muhim prinsp va amaliy choradir. Har qanday hujjatlarning Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishini*

*Konstitutsiyaviy sud, prokuratura organlari faoliyati orqali taminlanadi<sup>2</sup>*

Konstitutsiyaviy huquq sohasining har bir mamlakat milliy huquq sohasining tarkibi qismi, davlat va jamiyat hayotining muhim jihatlari, asosiy ijtimoiy munosabatlar tizimi hisoblanadi. Ushbu ijtimoiy munosabatlar, o'z navbatida jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ma'naviy sohalarda namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda, ushbu ijtimoiy munosabatlar amalga jamiyat hayotini yo'lga qo'yish, davlat hokimiyatini amalga oshirish, boshqa ijtimoiy hokimiyatlar maqomini belgilash, shuningdek inson va fuqaro huquq, erkinlik hamda burchlar bilan bevosita bog'liq. *Bir so'z bilan aytganda, inson, fuqaro, jamiyat va davlat hayoti bilan bog'liq eng asosiy ijtimoiy munosabatlar tizimi konstitutsiyaviy huquqning asosi hisoblanadi va aynan shu munosabatlar zamirida konstitutsiyaviy tuzum asoslari vujudga keladi, shakillanadi va rivojlanadi<sup>3</sup>.*

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUSIYASI 2023
2. KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ DARSLIGI "ADOLAT" 2013  
MUALLIFLAR:HUSANOV O. T
3. DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI 8-SINF DARSLIGI O. KARIMOVA, N. ISMATOVA, SH. SARIQOV, O. AMANOVA
4. DAVLAT VA HUQUQ ASOSLARI 9-SINF DARSLIGI G. M.TANSIKBAYEVA, V. A. KOSTETSKIY
5. [https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning\\_yaratilishi](https://constitution.uz/oz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi)

<sup>2</sup> Parxatov Mardonbek Davronbekovich - Toshkent davlat yuridik universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi bo'limi magistranti - O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ USTUNLIGINI TAMINLASH: NAZARIY VA AMALIY - <https://researchedu.org/index.php/iclt/article/view/2919>

<sup>3</sup> Atashayxov Abduvahid Abdushukurovich - O'zbekiston Respublikasi Jamoat Xavfsizligi universiteti dotsenti - KONSTITUTSIYA – IJTIMOIY HAYOTNING DEMOKRATIK TAMOYILI <https://bestpublication.org/index.php/pedg/article/download/8761/8921>